

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



**“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh. Xodjayeva
29-avgust 2025- yil**

**OLIY VA PROFESSIONAL TA’LIMDA MUTAXASSISLIK
FANLARINI O‘QITISH METODIKASI
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	70110502 – Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi

Qo‘qon-2025

Fan/modul kodi OPTMFO‘1405		O‘quv yili 2026-2027	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O`zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta`lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi	60	90	150	
2.	I. Fanning mazmuni Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Oliy ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri bo’lgan AQSHning Columbia University (Teachers College) Art & Art Education (MA) magistratura dasturi asosida takomillashtirilgan. Kompyuter yordamida loyihalash va ishlab chiqarish fanining o’quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet Asosiy reytinglar va e'tiroflar US News & World Report Milliy universitetlar: so'nggi nashrda 12-o'rin. QS World University Rankings 2026: Jahon miqyosida 23-o‘rinni egalladi, bu o‘tgan yillarga nisbatan ko‘tarilgan. Global reytingda yuqori o‘rinlarni egallaydi; 1%: MIT dunyodagi yetakchi muhandislik va dizayn universitetlaridan biri sifatida baholangan. Times Higher Education (THE) World University Rankings 2025: dunyo bo‘yicha 17-o‘rin US News & World Report Global Universitetlar (eski reyting): 2022-2023 yillarda eng yaxshi jahon universitetlari orasida 16-o‘rinni egalladi. Dasturda quyidagi asosiy jaihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi – kursda tasviriy san’at nazariyalari bilan birga amaliy mashg‘ulotlar, ijodiy loyihalar, o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish usullari keng o‘rganiladi. Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro san’at ta’limi me’yorlari, zamonaviy metodlar va innovatsion pedagogik yondashuvlarga asoslangan.				

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar san'at asarlarini tahlil qiladi, ijodiy yondashuv asosida metodik materiallar ishlab chiqadi, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni o'rganadi.

Magistr talablari: Tasviriy san'at, san'atshunoslik, pedagogika yoki shunga yaqin yo'nalishda bakalavr diplomi, O'quv jarayonida ilmiy tadqiqot olib borish, mustaqil amaliy loyihalar tayyorlash va ularni taqdim etish, Talabalardan pedagogik metodika, san'at nazariyasi va amaliyoti bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish talab etiladi

Fanni o'qitishdan maqsad: Magistratura talabalarini muhandislik grafikasi fanlari bo'yicha pedagogik faoliyatga nazariy va kasbiy tayyorgarligini ta'minlash, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish.

Fanning vazifalari: oliy va professional ta'limda muhandislik grafikasi siklidagi fanlarni o'qitishning umumiy va xususiy metodikalarini o'rganish, mutaxassislik profiliga mos bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish, talabalarga oliy va professional ta'limda muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish metodikasiga oid muayyan o'quv-metodik materiallarini ishlab chiqish, ilmiy muammolarni yechishda tizimli yondoshuvdan foydalanib o'qitishning yangi qirralarini ishlab chiqish, chizma geometriya, chizmachilik va kompyuter grafikasining o'qitilishida uning ta'limiy mazmuni va jarayoniga yo'naltirilgan kasbiy va shaxsiy sifatlarni o'rgatish.

II. Ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

	Ma'ruza mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1-mavzu. Kirish. Oliy va professional ta'limda muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishning dolzarb muammolari va zaruriyati. Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari. Muhandislik grafikasi siklidagi fanlarni o'qitishdagi o'ziga xosliklar. 2-mavzu. Muhandislik grafikasi fanlarining tarixi va uning taraqqiyoti hamda o'qitishga yondashuv tamoyillari. Markaziy Osiyo hududida yashab ijod qilgan allomalar: Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr al Farobiy, Ahmad al Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ulug'bek va boshqalarning geometrik yasashlar va proyeksiyalash metodlari haqidagi ta'limotlari. Eramizdan oldingi davr olimlari, Yevropa, Rossiya, Ukraina, O'zbekiston va boshqa davlat olimlarining muhandislik grafikasi siklidagi fanlar nazariyasiga, uning amaliy tadbqiqiga, o'qitish metodikasiga qo'shgan hissalar. Grafik axborotlar. 3-mavzu. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy tekshirish metodlari va bosqichlari. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish metodikasi sohasida qo'llaniladigan tadqiqotlar, ularning zaruriy shartlari. Pedagogik tadqiqot jarayoni bosqichlari. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish nazariyasi va metodikasi bo'yicha tadqiqot metodlari. 4-mavzu. Mutaxassislik fanlarida o'quv rejalashtirishning ilmiy asoslari, Oliy ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bosqichlari 5-mavzu. Tasviriy san'at ta'limida o'quv dasturi tuzish. 6-mavzu. Muhandislik grafikasi fanlari bo'yicha muammoli darslarni tashkil qilish. Muhandislik grafikasi fanlari o'qitishda muammoli ma'ruzalarni tashkil etish texnologiyasi. Muammoli vaziyatlarni yaratish. Muammoli masalalar va vazifalarni tuzish va ta'lim jarayonida qo'llash. 7-mavzu. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda programmashtirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Programmashtirilgan ta'lim texnologiyasi. Muhandislik grafikasi fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlarni dasturlashtirilgan nazorat kartalaridan foydalanish. 8-mavzu. Mustaqil ta'limni tashkil etish va nazorat qilish metodikasi, Innovatsion pedagogik yondashuvlar (blended learning, project-based learning).
--	---

9-mavzu. Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda talabalarning auditoriyadan tashqari faoliyatini tashkil qilish.

Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda auditoriyadan tashqari faoliyat turlari va ularning mazmun mohiyati. Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda mustaqil ta’lim mazmuni va uni tashkil etish. Muhandislik grafikasi fanlaridagi kurs ishi, kurs loyihalari, bitiruv malakaviy ishlarini bajarishda talabalarning mustaqil faoliyati.

10-mavzu. Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda iqtidorli talabalarni tanlash va ular bilan ishlash metodikasi.

Iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash hamda ular faoliyatining asosiy yo‘nalishlari. Iqtidorli talabalarni tanlash mezonlari. Muhandislik grafikasi fanlaridan fan olimpiadalariga va davlat stipendiyalariga nomzodlar tayyorlash. Iqtidorli talabalar bilan ishlarning “Ustoz-shogird” tizimi.

11-mavzu. Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitish bo‘yicha tajriba sinov ishlarini tashkil etish. Muhandislik grafikasini o‘qitishda uning pedagogik samaradorligini aniqlash bo‘yicha tajriba sinovlarini tashkil etish va o‘tkazish.

12-mavzu. Fanlararo integratsiyaning mutaxassislik fanlaridagi ahamiyati, Oliy ta’limda ilmiy tadqiqot va o‘quv jarayonining uyg‘unligi.

13-mavzu. Mashinasozlik chizmachiligini o‘qitish metodikasi.

Oliy va professional ta’limda ”Mashinasozlik chizmachiligi”, “Texnikaviy chizmachilik” fanlari mazmuni va fan sifatida o‘qitilishining o‘ziga xos xususiyatlari. Chizmalarni 2D, 3D modellashtirish vositalari.

14-mavzu. Arxitektura-qurilish chizmachiligini o‘qitish metodikasi.

Uzluksiz ta’lim tizimida arxitektura-qurilish chizmachiligini o‘qitishga bo‘lgan zaruriyat va uning o‘rni. Arxitektura-qurilish chizmachiligini o‘qitish metodikasi. Relif. Topografik chizmachilik.

15-mavzu. Muhandislik kompyuter grafikasi fanini o‘qitish metodikasi.

Chizmalarni kompyuter vositasida bajarish, buyumlarni loyihalash, ularni tahrirlash. Ikki va uch o‘lchamli modellarni bajarishda zamonaviy AvtoCAD, KOMPAS-3D (ASCON), NanoCAD (SAPR) va shu kabi dasturlar imkoniyatlaridan foydalanishga o‘rgatish. Ikki o‘lchamli chizmalarni chizish, ularni tahrirlash va nashrga chiqarish. Uch o‘lchamli jismlarning modellarini yasash, ularni tahrirlash. Kompyuter grafikasining fan sifatida o‘qitilishining o‘ziga xos xususiyatlari. Birikmalar. Birikmalarni 3D loyihalash asoslari.

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar
Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Oliy va professional ta’limda muhandislik grafikasi tarkibidagi fanlarni o‘qitishda ta’lim o‘nalishlarining malaka talablari, fan dasturlarining tahlili. Grafika fanlarning boshqa fanlar bilan aloqasi (umumiyligi, xususiyligi)ning

birga o'rganilishi. Grafika tarixi va rivojlanishida milliylik komponentlari.

2. Muhandislik grafikasi fanlariga oid nazariy va amaliy bilimlarning Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr al Farobiy, Ahmad al Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ulug'bek va boshqalarning geometrik yasashlar va proyeksiyalash metodlari haqidagi ta'limotlarining ta'limiy o'rni.

3. **Tasviriy san'at darslarida innovatsion metodlardan foydalanish.**

4. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish nazariyasi va metodikasi bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish metodlari, ularning zaruriy shartlari, bosqichlari.

5. O'quv jarayonida baholash jadvali va mezonlarini ishlab chiqish, O'quv qo'llanmalar va elektron resurslardan foydalanish.

6. Oliy va professional ta'limda talabalarining mustaqil bilim olish faoliyatini faollashtirish orqali o'qitish jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish masalasi. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda mustaqil ishlarni tashkil etish.

7. Talabalar faoliyatini monitoring qilish, Masofaviy ta'lim platformasida dars tashkil etish.

8. Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va yechim ishlab chiqish, Talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun mashqlar.

9. Oliy va professional ta'limda talabalarining muhandislik grafikasi fanlari bo'yicha olgan bilim, ko'nikma va malakasini tekshirish usullari, o'zlashtirilgan bilimlarni dasturlashtirilgan nazorat kartalaridan foydalanib tekshirish.

10. Muhandislik grafikasining ilmiy terminologiyasidan o'rinli va to'g'ri foydalanish usullari, termin tanlashning ilmiy pedagogik prinsiplari.

11. Muhandislik grafikasi fanlaridan kurs ishi, kurs loyihalari, bitiruv malakaviy ishlarni bajarish.

12. Iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash hamda ularni ijodiy faoliyatga o'naltirish bog'liq grafik masalalar tuzish. Muhandislik grafikasi fanlaridan fan olimpiadalari mezonlarini tuzish va ularga grafik topshiriqlar, kreativ masalalar va testlar tuzish.

13. Mutaxassislik fanlarini o'qitish bo'yicha tajriba sinov ishlarini tashkil etish o'llari. Muhandislik grafikasini o'qitishda uning pedagogik samaradorligini aniqlash bo'yicha tajriba sinovlarini tashkil etish va o'tkazish.usullari.

14. Muhandislik kompyuter grafikasini o'qitish metodikasi. Arxitektura-qurilish chizmachiligini, topografik chizmachilikni o'qitish metodikasi.

Muhandislik grafikasini o'qitishda 2D, 3D modellashirish vositalari.

15. Pedagogik tajribani tahlil qilish va xulosalar chiqarish, Talabalarni loyihaviy ishga jalb etish.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga

muvofiq.3D loyihalash imkonini beruvchi dasurlar va ularda qattiq jismlarni 3D loyihalash asoslari.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan niustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse - dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
 - dokladlar tayyorlash;
 - kurs ishi yozish;
 - konspekt yozish;
 - glossariy tuzish;
 - individual va guruhviy o'quv loyihasi;
 - keys-topshiriqlarini bajarish;
 - mavzuli portfoliolar tuzish;
 - axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
 - manbaalar bilan ishlash;
 - infografika tuzish;
 - chizma-tasviriyy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
 - multimedialiy taqdimotlar yaratish;
 - darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
 - darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;
- ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Muhandislik grafikasi siklidagi fanlarni o'qitishdagi o'ziga xos xususiyatlar.
2. Muxandislik grafikasi fanlarining tarixiy taraqqiyoti va rivojlanishi.
3. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish. faollashtirish, bilimlarni nazorat qilish va baholash o'llari.
4. Talabalarning o'quv, ilmiy va tadqiqot ishlari.
5. Faol va muammoli o'qitish metodlaridan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.
6. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda nazariy, amaliy va boshqa mashg'ulot darslarini tashkil qilish va o'tkazish.
7. An'anaviy ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari va kamchiliklari.
8. Didaktik o'yin texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.
9. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.
10. Chizmachilik darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanish yo'llari.

11. Chizmachilik darslarida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish o'llari.
12. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda programmalashtirilgan ta'lim texnologiyalari.
13. Muhandislik grafikasi fanlaridan bilimlarni nazorat qilishda test texnologiyasidan foydalanish.
14. Baholash tizimi.
15. Iqtidorli talabalarni tanlash va ular bilan ishlash metodikasi.
16. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda mustaqil ishlarni tashkil etish.
17. Fazoviy tasavvurni rivojlantirish masalalari.
18. O'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish masalalari.
19. O'qitishda to'g'ri tanlangan ilmiy terminlar.
20. Ilmiy tushunchalarni o'zlashtirish metodlari va texnologiyalari.
21. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda pedagogik tadqiqot ishlaridagi tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda anketa so'rovnomalari, test, suhbatlar tashkil etish.
22. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda pedagogik tadqiqot ishlaridagi tajriba-sinov ishlarining o'zlashtirish va samaradorlik mezonlari, baholash, diagramma va grafik ko'rsatkichlar.
23. Chizma geometriya fanini o'qitish metodikasi.
24. O'quv materiallarini modullarga ajratish.
25. Qurilish chizmachiligi fanini o'qitish metodikasi.
26. Topografik chizmachilik fanini o'qitish metodikasi.
27. Maxsus sxemalarni o'qitish metodikasi.
28. Muhandislik kompyuter grafikasi fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.
29. O'qitishda axborot texnologiyalarini qo'llash.
30. Muhandislik grafikasi siklidagi fanlar bo'yicha bilimni nazorat qilishga oid grafik masalalar, topshiriqlar tuzish.
31. Muhandislik grafikasi qanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ma'ruza mashg'ulotlarni loyihalash va pedagogik faoliyatda qo'llash.
32. Didaktik o'yinli texnologiyalarning muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishdagi o'rni.
33. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda seminar mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari, mashg'ulotlarni loyihalash va pedagogik faoliyatda qo'llash
34. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda amaliy va laborator mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari, mashg'ulotlarni loyihalash va pedagogik faoliyatda qo'llash
35. Tabalarning ilmiy tadqiqotchilik ishlarining maqsad, vazifalari va tashkiliy shakllari.
36. Tabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga rahbarlik qilish
37. DTS asosida o'quv rejalarini tahlil etish

	38. O'quv rejalari asosida yaratilgan fan dasturlarini o'rganish va tahlil etish. 39. Fan dasturlari asosida yaratilgan ishchi fan dasturlarini o'rganish va tahlil etish. 40. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda muammoli savollar va keys-stadi topshiriqlari tuzish. 41. Muhandislik grafikasi fanlaridan darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar, elektron darsliklar, portfolio, o'quv kursining elektron-ta'lim resurslarini va sillabusini yaratishni tahlil qilish. 42. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg'or tajribalarni o'rganib qiyosiy tahlil qiling. 43. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanib ishlanmalar ishlab chiqing. 44. Muhandislik grafikasi fanlarining mavzusini o'qitishda innovatsion texnologiyalar asosida loyihalash 45. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg'or tajribalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish.
3.	- oliy va professional ta'limda muhandislik grafikasi fanlarining muayyan o'quv-metodik materiallarini, metodik ta'minotini ishlab chiqish; - mashg'ulot rejasini tuzish va leksiya matnini tayyorlash; - olgan nazariy bilimlarini amaliyotga va dars jarayoniga tadbiq eta olish; - yil, semestr bo'yicha o'quv ishlarini rejalashtirish va tashkil etish; - kurs ishlariga rahbarlik qilish; - o'quv jarayonida ta'limning texnik vositalari va kompyuter texnikasini qo'llash; - talabalarning bilimi va mustaqil ta'limini tashkil qilish; - amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlarini talab darajasida tashkil qilish va uni o'tish malakasiga yega bo'lishi lozim.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.

6.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. T.Rixsiboyev., Kompyuter grafikasi. Toshkent, «Tafkkur qanoti», 2006.
2. A.Valiyev. Chizmachilik (Geometrik chizmachilik), T.:, TDPU rizografi, 2013.
3. J.Yodgorov, «Geometrik va Proeksion chizmachilik», T.:, «Fan». 2008.
4. J.Yodgorov, Mashinasozlik chizmachiligi, T., O'zbekiston, 2009.
5. I.Rahmonov, A.Valiev. Chizmachilik, "Vorish-nashriyot" T.:, 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar:

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017- yil , 488 bet.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. Toshkent, "O'zbekiston", 2017- yil, 48 bet.
8. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi shart". O'zbekiston respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016- yil yakunlari va 2017- yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. - Toshkent.: 2017. -104 b.
9. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi. – Toshkent: 2017.
10. M.B.Shah, B.C.Rana. Engineering Drawing, India by Sai Print-O-Pac Pvt.Ltd, India, 2007, 2009

Axborot manbalari

1. <http://www.edu.uz>-O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar ta'lim vazirligi sayti.
2. <http://www.uzedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi sayti.
3. <http://www.gov.uz>- O'zbekiston Respublikasi hukumati portali.
java.sun.com/j2me/docs
4. <https://www.tc.columbia.edu/>
5. https://www.tc.columbia.edu/media/media-library-2018/departments/aamph/art-ed/MASTERS_HANDBOOK_FINAL.pdf?utm_source
6. https://www.tc.columbia.edu/arts-and-humanities/art-and-art-education/courses/?utm_source

	7. https://www.tc.columbia.edu/arts-and-humanities/art-and-art-education/degrees--requirements/art-and-art-education-ma/?utm_source
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas’ullar: Ikromov Muhammad-Anasxon Xakimjon o‘g‘li “San’atshunoslik” kafedrasi dotsent. v.b, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD
9.	Taqrizchi: U.Sharaboyev - Qo‘qon DU, “San’atshunoslik” kafedrasi dotsenti